

**PEDAGOGIKA TURLARI, DIDAKTIKA VA PEDAGOGIKA O'RTASIDAGI UZVIY ALOQA**

**Odiljonova Sarvinoz O'tkir qizi**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Pedagogika ta'lif-tarbiya masalasini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab o'rganadi, tarbiya tarkibiy qismlarini va ularning uzviy bog'lanishini o'rganadi. Shu maqsadda tarbiya borasidagi tajribalarni birlashtiradi, kelgusida hamma uchun foydali bo'ladiyo'llarni kashf qiladi. Pedagogika o'z ichiga oila pedagogikasi, maktab ta'lif pedagogikasi, umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, maxsus (surdo, tiflo, oligofreno) pedagogikalar, qiyosiy pedagogikani oladi. Didaktika esa pedagogikaning bir tarmog'i hisoblanadi. Zamonaviy pedagogikada didaktika ta'lif va ma'rifat beradigan soha deb qaraladi. Didaktikaning o'rnini aniqlashda nazariy-falsafiy yo'nalishning o'rni katta.

**Kalit so'zlar:** oila pedagogikasi, maktab ta'lif pedagogikasi, umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, maxsus pedagogikalar, qiyosiy pedagogika, didaktika, defektologiya, kuzatish metodi, suhbat metodi, bolalar ijodini o'rganish metodi, test, so'rovnomalar metodi.

**Oila pedagogikasi-** oila tarbiyasiga oid muammolarning holati, o'rganishga qaratiladi. Oila pedagogikasi o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol avlod qilib tarbiyalashnini o'zining birlamchi maqsadi deb bilgan ekan, oilalarda yuzaga keladigan muammolarni ham ko'rib chiqadi.

**Maktab ta'lif pedagogikasi-** yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, shuningdek, auditoriyadan tashqarida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlarda faol ishtiroy etishi bilan bog'liq.

**Umumiy pedagogika-** maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish jarayonlarini o'rganadi.

**Maxsus pedagogika:**

**Surdopedagogika-** kar yoki eshitishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlash va ularni jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllantirishni o'rgatadi.

**Tiflopedagogika-** ko'r yoki ko'zi ojiz bolalar ta'lif-tarbiyasi bilan shug'ullandi va ularning ta'lif olishi uchun yaratilgan va yaratilayotgan sharoitlar haqida ma'lumot beradi.

**Oligofenopedagogika-** aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan bo'lib, defektologiyaning bir qismi hisoblandi.

**Xususiy pedagogika-** bo'lajak o'qituvchilarni milliy an'ana va urf-odatlar bilan bahramand qilgan holda milliy o'zlikni anglatadi va buni amaliy hayotda tatbiq qilishini ta'minlaydi.

**Pedagogik shakllar haqida.**

Pedagogikaning uch turi mavjud. Birinchi shakl – bu shakllanish pedagogikasi bo'lib, bu tur narsalar inson ustidan hukmronlik qilishi g'oyasini ilgari suradi. Bu yerda narsalar deganda muassalar, davlat tuzilmalari, pedagoglar, bir so'z bilan aytganda insonni shakllantirish bosqichiga olib chiquvchi barcha narsalarni tushunamiz. Shakllanish pedagogikasi tanlov imkoniyatini bermaydi. Ikkinci shakl imkoniyatlar pedagogikasi hisoblanib, u birinchi turga mutlaqo ziddir. Umumiy strategiya shundan iboratki, insonga o'z gardanidagi barcha ishlarni bajarish va qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Uchinchi shakl esa shaxsiy tarbiya pedagogikasi. Ushbu kichik turda inson ruhiy holatini o'rganishga ustunlik beriladi; boshqalar uchun xayrli ishlar qilish istagini, fidoyilikni nazarda tutadi. Bu ta'limotning ustun tarafi inson o'z qadri va ichki imkoniyatlarining kuchini anglab yetadi.

### **PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLARI.**

Har bir fanning ilmiy-tadqiqot metodlari bo'lib, ular ushbu fanning mazmuni va maqsadini aniqlashga yordam beradi. Pedagogika o'z mazmunini boyitish uchun mavjud pedagogik hodisalardan muvofiqlarini aniqlaydi va o'rganadi. Shu asnoda pedagogikaning ilmiy-tadqiqiy metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyash, o'qitish va bilim berishning real jarayonlarga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish metodlarining majmuyi tushunamiz.

Pedagogika tarbiyash, bilim berish va o'qitish metodlarini quyidagicha o'rganishni nazarda tutadi:

- ⊕ Ularning umumiyligi, bir-birini taqozo etishi va o'zaro ta'sir jarayonida bolalalarni o'qitish, tarbiyalash, fan, madaniyat, axloq va san'at ta'lism-tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat'iy nazar uzviy aloqada bo'ladi;
- ⊕ Ularning tinimisz harakati, o'zgarish va o'qitish jarayonida yuzaga keluvchi vazifalar va metodlar mavjudligi, hamma bolalalarni ham bir xil andozda o'qitib bo'lmasligi;
- ⊕ Bolaning o'sish jarayonida uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va xulqiy, so'z va ish birligi masalalariga tayanish;
- ⊕ Bolalarning tafakkuri va rivojlanishiga ta'sir etuvchi urf-odatlar va an'analarni bilish, ularning o'rtasidagi tafovutlarni bilish, aniqlash orqali yaxshi va yomon, eskilik va yangilik o'rtasidagi nizolarni hisobga olish, o'zaro tanqid va hokazo.

Pedagogikaning ilmi-tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri, mukammal bo'lsa, ta'lism-tarbiya mazmunini yanada takomillashtirish shunchalik yaxshilanib boraveradi. Bugungi kunga qadar mavjud bo'lgan va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlariga tayanib fikr yuritish mumkin. 1) kuzatish metodi; 2) suhbat metodi; 3) bolalar ijodini o'rganish metodi; 4) test, so'rovnomalar metodi.

Quyida har bir metod haqida ma'lumot berib o'taman:

### **KUZATISH METODI**

Pedagogikaning kuzatish metodi mayjud ta'lism-tarbiyaning amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat va natijalarini bilishga yordam beradi, shu asnoda kelgusidagi kashfiyotlar va omillarni yig'adi. Bu metodning qo'llanish jarayoni ancha murakkab bo'lib,

nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshirilayotgani, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni, individual farqlarni qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Odatda, kuzatish metodi orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, xulq-atvor va muomalasidagi o'zgarishlar aniqlanadi, tegishli xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratiladi.

### SUHBAT METODI

Ta'lif-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning to'g'rilik darajasini tekshirish uchun suhbat metodidan foydalaniladi. Suhbat metodi odatda maktab o'qituvchilari va o'quvchilari jamoasi, shuningdek ota-onalar bilan yakka va guruhli tarzda ish olib borilganda qo'llaniladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va to'g'ri yo'naltirishi, suhbatdoshining holatiga qarab suhbat ohangini o'zgartira olishi muhimdir. Bunda:

- Suhbat uchun oldindan savol tuzish;
- Vaqt va o'tkazish joyini belgilash;
- Suhbat ishtirokchilarining sonini va ularning kasb-korini aniqlash;
- Suhbat uchun qulay sharoit va erkin suhbatlashish imkonini yaratish;

Suhbat natijalarini darhol tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, qo'shimchalar kiritish va uni maktab hayotiga tatbiq etish pedagogic jihatdan muhim ahamiyatga ega.

### BOLALAR IJODINI O'RGANISH METODI

Ushbu metodda maktab o'quvchilarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinib kerakli xulosalar chiqariladi. Shu sababli, yoshlarning qobiliyatları, yutuqlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish yo'llari ko'rib chiqiladi. Odatda bolalarning bunday imkoniyatlarini ko'rsatishining yo'llari ko'p bo'lib, o'z ichiga: fan olimpiadalari, turli mavzu doirasidagi ko'rgazmalar, maktablar kesimidagi konkurslar, musobaqalar, ekskursiyalr va hokazolar.

### TEST, SO'ROVNAMALAR METODI

So'rovnama-anketa metodi yaratilgan yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, o'quvchilarning fikrlarini bilish va kerakli tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi. O'zbekiston Markaziy osiyoda birinchilardan bo'lib maktab, o'rta va oliy ta'limga tadbiq etdi. Maqsad esa o'quvchilarning oz vaqt ichida olgan bilimlarini aniqlash, albatta.

### DIDAKTIKA PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Didaktika predmeti- ta'lif jarayoni va uning qonuniyatlaridir. Didaktika o'ziga xos tadqiqot sohasi va tadqiqot predmetiga ega bo'lganidek, uning o'ziga xos tushunchalar tizimi ham mavjud. Didaktik tushunchalar- bu pedagogik fikrlash, didaktik hodisalarni bilish va ularni amaliyotda qo'llash.

Didaktika va metodika o'zaro bog'langan. Didaktika umumiyl o'qitishni o'rgatsa, metodika aniq bir fan yuzasidagi ta'limgni beradi.

### DIDAKTIK KATEGORIYALAR

- O'rgatish
- O'rganish

- O'qitish
- Ta'lism
- Bilim
- Ko'nikma
- Malaka
- Kompetensiya
- Maqsad
- Vosita
- Natija

Quyida bular haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

O'rgatish- o'qitish maqsadini amalga oshirishda pedagogning faoliyati.

O'rganish- anglash, mashq qilish va egallangan bilimlarni tajriba va test metodlarini qo'llash faoliyati.

O'qitish- o'qituvchi va o'quvchi o'rtaсидаги тартибланган о'заро гаракат.

Ta'lism-o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikmalar va fikrlash usullar tizimi.

Bilim- ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan g'oyalar yig'indisi.

Ko'nikma- o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyatga qo'llash imkoniyati.

Malaka- ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya- egallangan bilim va ko'nikmalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.

Maqsad- o'qitishning nimaga qaratilgani, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.

Vosita- o'quv jarayonining predmetli qo'llab quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalanadigan obyekt.

Natija- o'quv jarayonining so'nggi mahsuli.

Didaktika yoshlarni "nimaga o'qitish" va "qanday o'qitish" kabi savollarga javob beradi. Didaktika ayrim fanlarga oid o'qitish, o'qish metodi va uslublari bilan bog'liq. U o'qitishning barcha fanlarga oid umumiyl qonuniyatlarini aniqlab boradi va o'qitish metodiga asos bo'ladi. Ilmiy didaktikaning asoschisi chex pedagogi Yan Amos o'zining "Buyuk didaktika" asari didaktikani o'qitishga katta ta'sir qildi. Sharqda esa bu soha rivojiga Buxoriy, Termiziyy, Xorazmiy va Farg'oniy kabi mutafakkirlar; O'zbekistonda esa Ismoil G'aspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy kabilar o'z hissalarini qo'shdilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.** Pedagogika, Toshkent- “Talqin”-2008.
- 2.** Maxsus pedagogika, G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent-2005.
- 3.** Oliy mакtab pedagogikasi, Toshkent-2008.
- 4.** Oila pedagogikasi, Toshkent-2007.
- 5.** Pedagogika, “Noshir” Toshkent-2016.
- 6.** <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/qiyosiy-pedagogika-fani-haqida-umumiyy-tushuncha>
- 7.** <https://fayllar.org/1-didaktika-pedagogikaning-tarkibiy-qismi-sifatida-didaktikani.html>
- 8.** <https://paidagogos.com/tipyi-pedagogiki.html>